



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

15-OKTABR DAN “INSON” IJTIMOIY XIZMATLAR MARKAZLARI FAOLIYAT BOSHLAYDI

Davlatimiz rahbari shu yil 28-sentabrda “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qaror qabul qildi.

Unga ko'ra, 2023-yil 15-oktabrdan dastlab 28 ta tuman (shahar)larda eksperiment tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar guruhi ko'rsatadigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning yangi tizimi yo'lga qo'yiladi.

Quyidagilar tuman (shahar)lardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlaridagi ijtimoiy xodimlar guruhi asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari hisoblanadi:

og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlarini va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga individual tartibda ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish rejalarini ishlab chiqish;

individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga muvofiq, ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning ko'rsatilishini tashkil qilish, shuningdek, zarur hollarda individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga tegishli tuzatishlar kiritib borish;

ichki resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'ngillilarni (qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, volontyorlar) ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishga jalb qilish hamda ularning mazkur sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish; aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar to'g'risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yicha tushuntirish berish.

Bunda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishda ijtimoiy xodimlarga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi.

2023-yil 15-oktabrdan boshlab talabgorlarni o'zgalparvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi yoki yolg'iz keksa va nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etish yoki bekor qilish, shuningdek, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritish (undan chiqarish) “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari direktorlariga muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini agentlik huzuridagi uy-joy fondiga ega bo'lgan muassasalarga olti oy muddatgacha vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish huquqi beriladi.

Agentlik hamda uning hududiy bo'linmalari tazyiq va zo'raonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar bilan ishlash bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda ijtimoiy xodimlar faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq davlat xaridlari, istisno tariqasida, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.



QOZONDA

202 MILLION DOLLARLIK

SHARTNOMALAR IMZOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi doirasida Tatariston poytaxti Qozon shahrida O'zbekiston-Rossiya hududlararo hamkorligi bo'yicha III Forum o'tkazildi.

Mazkur forumda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi viloyat delegatsiyasi ham ishtirok etdi.

Viloyat hokimligi, investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi vakillari hamda 20 dan ortiq ishbilanmonlar Rossiya Federatsiyasining hududlari bilan ikki tomonlama manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha muzokaralar olib

bordi. Ikki kun davomida ular rossiyalik tadbirkorlar bilan tibbiyot, ta'lim, to'qimachilik va yengil sanoat sohalari da ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

Delegatsiyaning tashrifi davomida umumiy qiymati 202 million AQSh dollari, jumladan, investitsiyalar sohasida 152 million AQSh dollari va eksport bo'yicha 50 million dollar miqdorida kelishuvlar ishlab chiqildi.

O'z vaqtida qilingan to'lov

Dolzarb mavzu

suv ta'minotining yaxshilanishiga xizmat qiladi

Yer yuzi aholisining asosiy muammasiga aylanib borayotgan ichimlik suvi yetishmovchiligi yurtimiz uchun ham dolzarb bo'lmoqda. Keyingi yillarda nafaqat daryolarimizda, balki yer ostida ham sunning kamayib borishi ichimlik suvi tanqis bo'lishiga olib kel-yapti.

Viloyat hokimi E.Turdimov o'tgan hafta “Samarqand suv ta'minoti” MCHJda bo'lib, tizimda amalga oshirilayotgan ishlar va mavjud muammolarni soha mutaxassislari bilan birga muhokama qildi.

Yig'ilishda viloyat aholisining ichimlik suvi va oqova xizmatlaridan 90 milliard so'mga yaqin qarzdorligi yuzaga kelgani soha rivojiga to'siq bo'layotgani, tizimni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, yangi suv inshootlari qurish imkonini bermayotgani ta'kidlandi.

Bugungi kunda viloyat aholisining 70,6 foizi markazlashgan, 29,4 foizi esa turli suv manbalari orqali suv bilan ta'minlangan. 1126 ta mahallaning 543 tasi qisman, 137 ta mahalla aholisi esa markazlashmagan holda suvdan foydalanib kelmoqda.

- Yurtimizda aholi salomatligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy va hududiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi 5-6 yilda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun davlat budjetidan avvalgi yillarga nisbatan 6 baravar ko'p mablag' ajratildi.

- dedi viloyat hokimi E.Turdimov. - Iste'mol qilingan suv uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, yangi suv inshootlari qurish va ta'mirlash uchun mablag' yetishmasligi mumkin. Prezidentimiz aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratib, respublikamizdagi 30 ta tuman qatori viloyatimizdagi Oqdaryo, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Jomboy tumanlarida ham ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash vazifasini qo'ydi.

Biroq viloyat hokimi ko'p hollarda suv behuda yo'qotilayotgani, iste'molning aniq hisobi yo'qligini, ayrim suv nasoslari va soha korxonalariga tegishli maxsus texnikalar eskirganligini ta'kidlandi.

Hozirda “Samarqand suv ta'minoti” MCHJ Samarqand shahar filiali bo'yicha qariyb 141 ming nafar iste'molchidan 63229 tasining 43 milliard 862 million so'm qarzi mavjud. Qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha shaharning barcha sektorlarida ishchi guruhi tuzilib, xonadon-ma-xonadon ichimlik suvi va oqova xizmatlaridan qarzdorlikni undirish choralari ko'rilmoqda. Natijada bir haftada mavjud qarzdorlikni 38,6 milliard so'mgacha kamaytirishga erishildi.

Bugungi kunda 1837 ta suv inshootidan 650 tasi, 6412,6 kilometr suv tarmoqlarining 834,1 kilometri, ya'ni 13 foizi ta'mirlanib ahvolga kelib qolgan, shuningdek, aholi xonadonlarining bor-yo'g'i 18,3 foizi oqova suv xizmati bilan ta'minlangan.

- Joriy yilda turli dasturlar asosida 90 ga yaqin mahalladagi 160 ming aholi ilk bor toza ichimlik

suv bilan ta'minlangan bo'lsa, 85,9 ming nafar aholi ta'minoti yaxshilandi, - deydi “Samarqand suv ta'minoti” MCHJ direktori o'rinbosari Akram Siddiqov. - Yil yakunigacha aholi punktlarining markazlashgan suv ta'minoti 70,6 foizdan 74,5 foizga, oqova xizmatini esa 18,7 foizdan 20,6 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Jumladan, joriy yil oxirigacha Kattaqo'rg'on tumanida 35,1 milliard so'm hisobiga 198,1 kilometr tarmoq va 23 ta suv inshooti quriladi. Markazlashgan ichimlik suvi bilan



ta'minlash darajasi 36,3 foizdan 59 foizga yetkaziladi. Shuningdek, Oqdaryo tumanida 15,1 milliard so'm sarflanib, 33,1 kilometr tarmoq va 7 ta suv inshooti quriladi, ta'minot 43,6 foizga, Ishtixonda 66 milliard so'm evaziga 37 kilometr tarmoq va 8 ta suv inshooti foydalanishga topshirilishi natijasida ichimlik suv ta'minoti 47,4 foizga yetkaziladi.

2024-yilda esa 99 kilometr ichimlik suvi, 19 kilometr oqova tarmoqlari, 4 ta ichimlik suvi, 2 ta oqova tozalash inshootlari qurilishi rejalashtirilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Viloyat axborot-kutubxona markazida 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” to'plamining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Unda ushbu majmuani tayyorlashda ishtirok etgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari Adhambek Alimbekov, Tohir Qahhor, Risolat Haydarova, Shahlo Qosimova hamda viloyat adabiy jamoatchiligi vakillari va yoshlar ishtirok etdi.

Taqdimotda to'plamni yaratish bilan bog'liq jarayonlar xususida so'z yuritildi. - Davlatimiz rahbari Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalardan iborat kitoblarni turkumini nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi, - deydi majmuani nashrga tayyorlovchi ishchi guruhning muvofiqlashtiruvchi koordinatori Risolat Haydarova. - Ushbu ezuq tashabbus asosida turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning buyuk allomalari merosi, shuningdek, bugungi zamonaviy adabiyotning sara namunalari bir maj-

“Turkiy adabiyot durdonalari” –

turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan yirik adabiy loyiha



muada to'plash maqsadida turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlarning milliy adabiyoti namunalariidan iborat 100 jildli majmua nashr etildi. “Turkiy adabiyot durdonalari” to'plami 1100 nafar muallifni qamrab olgan. Majmua uchun material to'plash maqsadida qardosh davlatlarga bir necha

bor ijodiy safarlar uyushtirildi, 50 ga yaqin adabiyotshunos va matnshunos olimlar, adiblar, muharrirlar hamda 200 nafardan ziyod tarjimon uni tayyorlash va chop etish ishlariga jalb etildi.

Ushbu to'plamga umumturkiy adabiyotning qadimgi davridan bugungi kungacha bo'lgan sara namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritilgan. Bu adabiyot xazina turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan yirik adabiy loyiha sifatida e'tirof etildi.

- Samarqandda ushbu to'plamning taqdimotini o'tkazishimiz bejiz emas, - deydi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori Adhambek Alimbekov. - Majoziy qilib aytganda, 100 jildli majmuaning xamirturushi shu ko'hna shaharda qorilgan edi. To'plam Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand sammitida ilk marta dunyo yuzini ko'rdi. Davlatimiz rahbari ushbu sammitda 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” to'plami o'zbek tilida nashr etilganini ma'lum qilib, ushbu bebaho ma'naviy xazinani barcha a'zo va kuzatuvchi davlatlar tillarida ham chop

etish taklifini bildirdi. Majmuada barcha turkiy tilli xalqlar adabiyoti vakillariga keng o'rin berilgan. Xususan, “Umumturkiy adabiyot namunalari” deb nomlanuvchi dastlabki 5 jilddan Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” va Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniyning “Hikmatlar”i hamda Nosiruddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” kabi mumtoz asarlari, 6-jildda Alisher Navoiy g'azallari, 7-jildda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”-si va g'azallari o'rin olgan. 28 jildni tashkil etgan “O'zbek adabiyoti namunalari” qoraqalpoq adabiyoti namunalari ham o'z ichiga oladi. Majmuada turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, va turkman ijodiyotiga ham keng o'rin ajratilgan.

Jodiy loyihada G'afur G'ulom, Mirzakalon Ismoilov, Mirtemir, Nosir Fozilov, Pirmqul Qodirov singari adiblar bilan bir qatorda badiiy tarjima sohasining bugungi mahoratli namoyandalarning ijodiy ishlariga alohida o'rin berilgan.

Sulaymon MARDIYEV, Jasurbek SHUKUROV (surat).

Shodiyorxon ABDUVOYITOV: HARVARD — ERISHIB BO'LMAYDIGAN CHO'QQI EMAS

Yaqinda Prezidentimiz Oqdaryo tumanidagi 32-umumta'lim maktabida bo'lganida Harvard universiteti talabasi Shodiyorxon Abduvoyitov bilan ham suhbatlashib, unga omad tilagandi. Shodiyorxon bilan suhbatimiz uning bolaligi, qanday qilib nufuzli universitet talabasi bo'lgani va kelajakdagi orzulari haqida bo'ldi.

- Bolaligimda juda sho'x edim, ammo oldimga qo'ngan maqsadim bo'lgan, - deydi Shodiyorxon. - Masalan, fan olimpiadasida o'rin olishim kerakmi, albatta, shunga intilganman. Menda mas'uliyat hisi erta uyg'ongan, tengdoshlarim o'ynasa, dam olsa, men o'qiganman. Maktabda ko'pincha jismoniy tarbiya darslariga qatnashmasdim, sinfda bir o'zim keyingi darsga tayyorlanib o'tirardim.

Bolalar 5-6-sinfigida kelajakda prezident bo'lishni orzu qiladi, ammo men kosmonavt bo'lishni, olim bo'lishni o'ylardim. Ulg'aygach, yana orzularim o'zgardi, oldimga katta maqsad qo'nganman. O'sha maqsadimga erishish uchun harakat qil-yapman.

Dastlab qishlog'imizdagi maktabda, 5-sinfdan tumani-mizdagi 52-IDUMda o'qiddim. Ixtisoslashtirilgan maktab uyumidan uzoqda joylashgani uchun shanba, yakshanba kunlari uyga kelardim. Maktabda tajribali ustozlardan bilim oldim, shuning uchun hamma fanlarni yaxshi ko'rib o'qiddim. So'ngra 2019-yilda eng yuqori ball bilan Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga o'qishga kirdim. Birinchi kursni bitirgach, ya'ni 2021-yilda o'zimdanda bir sinf quyi o'qigan qizga uylanaman, deb turib oldim. Maktabdalgimdan shu qizga ko'ngil qo'ygandim. Uylanmasam, chet elga o'qishga ketaman, dedim uydagilarga. O'qiyotgan institutum tomonidan xorijda o'qish imkoniyati bor edi. Shundan so'ng ota-onam uylantirib qo'yishdi. Bir yildan so'ng qizim, yaqinda o'g'lim tug'ildi. Shu yil institutni bitirdim. Institut diplomini olmay olgach, Harvard universitetiga magistraturaga hujjat topshirdim.

Harvard universitetiga joriy yilning 7-iyul kuni 100 ming AQSH dollari asosida grantga o'qishga kirdim. Endi bitta suhbat bosqichi qolgan, men va hujjatlarimni tekshirish uchun. Suhbat bosqichi butun dunyo bo'yicha 2024-yilning 6 yanvar kuni boshlanadi. Keyin avgust oyida viza olish uchun hujjatlarimni elchixonaga topshiraman va nasib bo'lsa, sentabr oyida Amerikaga ketaman. Mutaxassisligim biznes administratsiyasi bo'yicha magistratura shakli bo'lib, bu universal soha hisoblanadi. Ikki yillik magistraturadagi o'qishimning bir yillik kontrakt puli 65 ming dollar. Menga ikki yil uchun 130 ming dollar kerak edi, ya'ni 100 ming dollar grantimdan tashqari yana 30 ming dollarni o'zim topishim lozim edi. "El-yur'umid" jamg'armasi menga 30 ming dollarni hamda bilek, ijara, yashash pullarini qoplab beradigan bo'ldi.

Mutaxassisligim bo'yicha O'zbekistondan men va naman-ganlik bir qiz Harvardga o'qishga kiribdi. Prezidentimiz bilan uchrashganimga avvaliga hamma gaplarim yodimdan ko'tarilib ketdi. So'ngra hayajonimni bosib, Prezidentimizga grant asosida o'qishga kirganimni aytdim. U kishi xursand bo'lib ketdilar va "Ota-onangiz, ustozlaringizga salomimni va rahmatimni yetkazing", dedilar.

Ko'pchilik hali ham o'qishga kirganimga ishonmaydi. To'g'ri, ilgari O'zbekistondan Harvardga juda kam talaba o'qishga kirgan. Aslida Harvard egallab bo'lmaydigan cho'qqi emas, kelajakda yuzlab o'zbekistonlik yoshlar bemaol ushbu universitetga o'qishga kirib, o'qiy oladi.

Shodiyorxon o'zi tug'ilib o'sgan Oqdaryo tumanida "Joy akademi" o'quv markazi ochgan. O'quv markaziga mahalladagi bolalarni jalb qilgan. Uning fikricha, kishilarning turmush tarzini yaxshilash uchun ularning dunyoqarashini kengaytirish kerak. Buning uchun o'qish va bilim olish lozim.

- Keyingi yillarda o'quv markazlari ochishga hukumatimiz keng imkoniyatlar berdi, - deydi Shodiyorxon. - Shundan foydalanib, o'quv markazimizda chet tili va IT sohasini o'rgata boshladik. Keyin yoshlarimiz Hindistonda bo'lib o'tgan shaxmat musobaqasida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgach, markazimizda shaxmat klubi tashkil qildik.

O'quv markazimizda 50 foizdan ortiq yoshlar imtiyozli o'qiydi. Sharoitdan kelib chiqib, kimdir 50 foiz, kimdir 100 foiz chegirma asosida ta'lim oladi. Shunda ham Alloh rizqimizni beryapti.

Bundan tashqari, "Kelajak kasblari" milliy loyihasi asosida biz o'quvchilarni IT sohasi bo'yicha yuz foiz tekis o'qitdik. Unga ketgan xarajati davlat bizga qoplab berdi.

Yaqinda yana bir loyiha boshladik. Yetti kishilik jamoamiz bor. Tenderda Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on va Oqdaryo

tumanlarida biznes inkubatsiya va akseleratsiya markazining katta loyihasini yutib oldik. Yevropa Taraqqiyot banki O'zbekistonga subsidiya ko'rinishida, ya'ni bir biznes inkubatsiya va akseleratsiya markazi uchun 230 ming AQSH dollari miqdoridagi summalarini ajratyapti.

Biznes inkubatsiya markazi nima degani? Hozir yoshlarimizning ko'pchiligi tadbirkorlik qilish uchun, masalan, issiqxonaga qurish uchun kredit olaydi. Lekin issiqxonaga haqida ilmi yo'q. Qaysi o'simlikni ekisa, yaxshiroq bo'ladi, qaysi dorini sepish kerak, qachon hosilni terib olish lozimligini bilmaydi. Shuning uchun ko'pchilik yoshlarning biznesi kuyib, qarzini qaytara olmay qolyapti. Biz yoshlarga biznesni boshlashdan oldin bilim, maslahat va yo'nalish beramiz. Buning uchun ikki nafar xodim chet eldan jalb qilinadi. Uch nafar mahalliy mutaxassis ishga olinadi. Nasib bo'lsa, bu loyihani shu oydan boshlaymiz.

Shodiyorxon yosh bo'lishiga qaramay, ko'plab muvaffaqiyatlarga erishgan. Uning oldiga qo'ngan maqsadlari, amalga oshirishi lozim bo'lgan rejalari bisyor. Shu bilan birga, u farzandlari tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullanishga bel bog'lagan.

- Farzandlarimning o'zimga o'xshamasligini istayman, - deydi u. - Sababi, bolaligimni behuda narsalarga sarflaganman. Hozir bundan-da yaxshi natijalarga erishmas bo'lardi. Farzandlarimni Yaponiya tajribasi asosida tarbiyalamoqchiman. Yaponiyalik Masaru Ibukaning "Uchdan keyin kech" degan kitobi bor. Xullas, bolaga ikki yoshdan keyin chet tilini o'rgatishni boshlash kerak. Shunda bola yetti yoshida uchta tilda gapira oladi, yoza oladi, bemaol o'qiydi va kitob yozish qobiliyatiga ham ega bo'ladi.

Aslida bu tajriba bizdan o'zlashtirilgan, sababi, ulug' allomalimiz yetti yoshida uch-to'rt tilda gaplasha olgan. Masalan, hazrati Alisher Navoiy bobomiz yetti yoshida beshta tilni bilgan. Al-Xorazmiy bobomiz ITChilarning ustoz bo'lgan. Ota-bobolarimiz bola yetti yosh-gacha qori yoki qoriya bo'lishi kerak deb talab qo'ygan. Faqat mana shu tajriba bizda unutilgan, tartiblanmagan. Nasib qilsa, bu haqida kitob yozish niyatim bor.

O'zim ham ingliz tilini maktab davrimdan hozirga qadar o'rganib kelyapman. Ingliz tili faqat oliy ta'lim muassasasi-ga kirish uchun kalit emas, butun dunyoga chiqish uchun har bir inson bu tilni bilishi kerak. Shuning uchun yoshlarga ingliz tilini as-toydil o'rganishni maslahat beraman. Bugun ijtimoiy tar-moqlarda 90 foiz ma'lumot ingliz tilida yozilgan.

Odam dunyoqarashi keng insonlar bilan hamsuhbat bo'lsa, fikrlash doirasi kengayib boradi. Mening tajribali va bilimli ustozlarim bor, ular bilan tez-tez hamsuhbat bo'lib, maslahatlarini olaman.

Badiiy kitoblarni maqsadim yo'lida o'qiyman, ko'proq ilmiy-ommabop kitoblarni o'qiyman. Bir safar "Don Kixot" kitobini o'qishim kerak bo'lib qoldi. Kerak bo'lgani uchun o'qiddim, aslida vaqtimni qizg'angan bo'lardim. Vaqtini boshqarish haqida, bepar-vollikning nozik san'ati, iqtisodiyot-ga oid kitoblarni o'qiyman. Bulardan charchasam badiiy kitob o'qiyman. Eng yaxshi ko'rgan kitobim Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asari. Bu kitob menga zavq bergan. Hammaning o'z kumiri bo'ladi, mening kumirim Sohobqiron Amir Temur.

Xurshida ERNAZAROVA suhbatlashdi.



"XAVOSI" RESPUBLIKADA MUQOBILI SANOQLI BO'LGAN ZAMONAVIY BINOGA KO'CHDI

Qorasuvga, yangi qurilib, foydalanishga topshirilgan tez tibbiy yordam markaziga hali bormasimdanog ba'zi e'tirozlarni eshita boshladim. - Tez tibbiy yordam shaharning ichida joylashgan bo'lishi kerak emasmi? Nega uni borish noqulay, doimiy ravishda avtomobillar tig'iz qatnaydigan yo'l orqali o'tiladigan hududga qurishgan axir? "Tez yordam" mashinasi uchun Qorasuvga boradigan yana bir yo'l bormi? Shuni ochib qo'yish kerakdir balki?

Bu e'tirozlarni oldin ham eshit-ganim uchun indamadim. Ammo bu haqda shifoxona mutasaddilaridan, albatta, so'rashni ko'nglimga tugib qo'ydim.

Xayolan ilgari, samarqandliklar "Xavosi" deb nomlashga ko'nikib qolgan shifoxona ko'z o'ngimdan o'ta bosh-ladi. Yaxshi bilaman, u yerga borishga ko'pchilik irim qilardi. Chunki o'z nomi bilan viloyatdagi eng yirik, shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish shifoxonasi. Bu yerga eng og'ir vaziyatda kelishadi. Aks holda...

Shifoxonaning qabul bo'limini biroz vaqt kuzatsangiz, bu yerga kelayotgan oqimning nechog'lik ko'p ekanligini tasavvur qilasiz. Kuza-ta turib, u yerdagi sharoit ham ko'nglingizni biroz xira qiladi. Eski liftlar, tor yo'laklar, qabul bo'limi-da bemorlarning ko'pligi, ularning yaqinlari uchun umuman sharoit yo'qligi...

Mazkur shifoxonaning Qorasuv maskanida yan-gidan bunyod etilgan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali bugun tashqi ko'rinishi, qavatlar soni bilan eski "Xavosi" bilan juda o'xshash bo'lsa-da, ammo talaygina o'zgarishlarga ham ega.

QIZIL, SARIQ, YASHIL YO'LAK NEGA KERAK?

Bu o'zgarishlarni shifoxonaga kirishdayoq his qilasiz. Bemorlarga ilk tibbiy yordam ko'rsatilayotganda ularning hammasi bir joyda qabul qilinmayotganini kuzatasiz. Qabul-xonaning o'zi bir nechta bo'lim va xonalarga ajratilgan. Bu yashil, sariq, qizil chiziqlar orqali ajratib qo'yilgan.

- Shifoxona qurilishi, qavatlar bilan eskisiga juda o'xshash bo'lsa-da, ammo bemorlarni qabul qilish va ularni bizning talabimizga ko'ra, har bir soniyaning qadriga yetgan holda davolash uchun xalqaro andozalarga mos sharoit yaratilgan, - deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy marka-zi Samarqand filiali direktori o'rinbosari Tolib O'sarov. - Tez yordamga keluvchi bemorlar uchun toifaga ajratiladi, ya'ni ahvoli o'rta, o'rta og'irlikda va juda og'ir. Ahvoli o'rtacha, ya'ni o'z-lari oyoqda yurib, bora oladigan, shifokorlarning to'liq tekshiruviga muhtoj bemorlar yashil yo'lak orqali zarur bo'limga o'tishadi va shu yerdan to'liq ko'rikdan o'tib, zarur muolajaga yuboriladi. O'rta og'irlikdagi bemorlar uchun maxsus ko'yaklar va zarur jihozlar keltirilgan. Ya'ni, ular shu yerning o'zida to'liq ko'rikdan o'tib, tegishli bo'limga o'tkaziladi.

O'ta og'ir bemorlar uchun shoshilinch bo'lim - birinchi qav-atning o'zida jarrohlik xonasi tashkil etildi. Bir paytlar ilk tibbiy yordam ko'rsatish uchun soniyalar lozim bo'lgan bir paytda shifokorlar og'ir ahvoldagi bemorni to'rtinchi qavatga olib chiqishi, zudlik bilan jarrohlikni amalga oshirish uchun esa yana bir nechta tekshiruvlarni turli xonalarda amalga oshiri-shi lozim edi. Bu esa nafaqat vaqt, balki kimgindir hayo-tini yo'qotishga ham olib kelishi mumkin edi. Yangi binoda birinchi qavatning o'zida eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan jarrohlik xonasining tashkil etilishi - bu xalqaro andozalarga mos tez tibbiy yordam xizmati ko'rsatilishi demakdir.

Shu o'rinda Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filialining yangi binosi bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tsak: Samarqand tumani Qorasuv massivida joylashgan. 2019-2023-yillar davomida 103,3 milliard so'm budget mablag'lari hisobiga qurilgan. 330 stasionar o'rin bo'lib, 45 ta reanimatsion ko'yakga ega. O'ylik qatnov 10 ming nafarni tashkil etadi. Shifokorlar 276 nafar bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlari 669 nafar.

XALQARO STANDARTLARGA JAVOB BERADI

- Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, markazimiz faoliyatini olimlarning ilmiy salo-

hiyati bilan chambarchas bog'lab olib boradi, - deya suhbatni davom ettiradi Tolib O'sarov. - Bugungi kunda filialda 3 nafar tibbiyot fanlari doktori, 11 nafar tibbiyot fanlari nomzodi faoliyat olib bormoqda. Uch nafar xodimimiz doktorlik, ikki nafari esa nomzodlik ishi ustida ishlamoqda.

O'nlab shifokorlarimiz keyingi yillarda doimiy ravishda xorijdagi yetakchi tibbiyot muassasalarida malaka oshirib kelmoqda. Yangi tibbiy uskunalarining keltirilishi davolashning zamonaviy usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda shifokorlarimiz yiliga 12500 ga yaqin jarrohlik amaliyoti, shu jumladan, 5000 ta kam invaziv (endoxirurgik, endourologik, artroskopik, endogine-kologiya, bolalar jarrohligi, travmatologik, qon-tomir va mikroxirur-gik jarrohlik, toroq jarrohlik hamda neyroxirurgik) yuqori tex-nologik operatsiyalarni amalga oshirmoqda.

Shu o'rinda bir misolni aytib o'tsam. O'tgan yili malaka oshirish uchun Germaniyadagi tez tibbiy yordam shifoxo-nalarida bo'lganimizda u yerdagi shart-sharoit, qisqa vaqt ichida bemorga sifatli yordam ko'rsatish xizmati nechog'lik takomillashganiga guvoh bo'lgandik. Qaniydi, bizning marka-zimizda ham shunday sharoitlar yaratilsa, deya orzu qilgan-miz. Buni qarangi, mana oradan ko'p vaqt o'tmay, xuddi shunday markazga ega bo'ldik. Hech mubolag'asiz aytishim mumkin, filialning hozirgi ko'rinishi, undagi shart-sharoit-lar, zamonaviy uskunalar Germaniyada biz ko'rgan klinikadan deyarli farq qilmaydi.

Markazni aylanarkanmiz, u yerdan eng so'nggi rumumdagi zamonaviy jihozlar, ayniqsa, bugun ko'p bemorlar tashxisi uchun lozim bo'lgan MSKT apparatining so'nggi rumundagisi, yana bir rentgen uskunasi ishga tushganiga guvoh bo'ldik.

E'tiborli jihati bemorlarning yaqinlari kutishlari uchun alohida xonalar va sharoit yaratilganida. Ularning holidan xabar oluvchi-lar bemorlar kirib kelayotgan eshikdan emas, boshqa tomondan kirishlari uchun sharoit yaratilgan.

E'TIROZLARGA IZOHLAR

Darvoqe, yuqoridagi e'tirozni ham bildirib o'tganimizda shunday izoh oldik.

- Avvalo, shuni qayd etish kerakki, markazimizga murojaat etuvchilarning 75 foizi viloyatning turli shahar va tumanlaridan kelgan bemorlar sanaladi, - deydi T.O'sarov. - Ya'ni, mazkur hudud shunchaki, o'z-o'zidan tanlanmagan, barcha statistik raqamlar va tahlillar amalga oshirilgach, shunday qar-ornga kelingan. Qorasuv turli hududlardan keluvchi bemorlar uchun qulay joy hisoblanadi. Shahar ichida avtomobillarining tig'iz qatnovi bugun ilgirigidan bir necha barobar ortgan. Shu nuqtai nazardan mazkur hudud bemorlar kelishi uchun eski joyidan ko'ra qulayroq ham. Shifoxonaga olib keluvchi yo'ldan foydalanishga ruxsat berishlarini so'rab bildirgan tak-liflarimiz inobatga olinishi kutilmoqda.

Yaxshi bilasiz, shoshilinch yordam ko'rsatish lozim bo'lgan bemorlar shikoyati asosan yurak-qon tomir xastaliklari bilan bog'liq. Samarqand shahrida joylashgan viloyat kardiologi-ya shifoxonasida shunga ixtisoslashgan bir bo'limimiz faoliyat ko'rsatadi. Ya'ni, agar shu turdagi xastalik bilan Samarqand shahri ahli orasida chaqiruvlar bo'lsa, ularga hech qiyinchiliksiz shu bo'lim shifokorlari tezkor xizmat ko'rsatishi mumkin.

Tez tibbiy yordam faoliyatida keyingi yillarda sodir bo'lgan yana bir muhim voqeani ta'kidlab o'tmasam bo'lmaydi. Shu yilning o'zida Bulung'ur, Urgut, Ishitxon, Paxtachi tumanlari tibbiyot birlashmalarida politravma bo'limlari tashkil etildi. Turli darajada, zudlik bilan tibbiy muolaja talab etadigan jarohatlar shu yerning o'zida bartaraf etilishi uchun sharoit yaratilgan.

"XAVOSI" O'RNIDA NIMA BO'LADI?

Ijtimoiy tarmoqlarda shu masala yuzasidan ham bahs-mu-nozaralarga ko'zimiz tushdi. Shaharning qoq markazi bo'lgan ushbu kattagina hudud uddaburun tadbirkorlarga nasib etadi, deya fikrlovchilar ham yo'q emas. Unday emas ekan. Mutasaddilarning fikriga ko'ra, ushbu hudud o'rnida hozir-cha Samarqandda mavjud bo'lmagan uchta yirik tibbiy-ilmiy markazlarning filiallari faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Gulruh MO'MINOVA, "Zarafshon" muxbiri.

OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralari ni ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Past Darg'om, Samarqand, Oqdaryo, Toyloq, Urgut, Jomboy, Bulung'ur tumanlari hamda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistrat gaz quvurlari yotqizilganligi ni hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizga murojaat qilmoqdamiz.



Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlar buzilishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'ymaslik uchun "Magistral gaz quvurlari himoya qoidasi"ga va O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hududi o'rnatilgan.

Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, kran turgunlari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalarini (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza zonasiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistrat gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya etgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borish mumkin.

Muhofaza zonasida quvurlarning me'yorida ishlashiga halaqat beruvchi yoki ularga shikast yetkuzuvchi har qanday turdagi ishlarni bajarish taqiqlanadi. Xususan:



- har qanday qurilish ishlarini olib borish, doimiy va vaqtinchalik imoratlar qurish;

- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, chorva mollari ni saqlash va suv ichadigan hovuzlar qurish, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish va baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlarni parvarishlash;

- quvur yo'nalishi ustidan o'tish va kesib o'tish yo'llarini qurish, traktor va boshqa og'ir mexanizmlar uchun turarjoylar barpo etish, jamoat bog'lari va polizlarni tashkillashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va burg'ulash ishlarini amalga oshirish, tuproqni surish va tekislash;

- melioratsiya ishlarini bajarish, sug'orish va suv qochirish kanallarini qurish, chuqur-lashtirish;

- nazorat-o'lchov quduqlari, nazorat-o'lchov punktlari, bildiruvchi va ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o'zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytiruvchi punktlarning qopqoqlarini, kimyoviy himoyalash stansiyasi va boshqa uskunalar atrofiga o'rnatilgan sim to'siqlarni ochish va ichiga kirish, kranlar, zulfonlar va jo'mraklarni ochish yoki yopish, aloqa vositalari va energiya ta'minoti uskunalarini o'chirish va yoqish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindilarni yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislotla eritmalarini to'kish;

- har xil maqsadlarda olov yoqish, quruq xashak va somonlarni yoqish;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlari ekish.

Magistral gaz quvurlarini himoya qilish qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortiladi.

Magistral gaz quvurlari bo'ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko'rinishida, quvur o'qining har ikki tomoniga 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi.



Qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni magistrat gaz quvurlarining o'qidan har ikki tomoniga 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig'imlar atrofida, neft, kondensat va siqilgan uglevododrodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida "Qurilish me'yori va qoidalari" (QM 2.05.06-97) me'yoriy hujjat asosida magistrat gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Unga ko'ra, diametri:
- 1200 mm.dan 1400 mm.gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi

quvur o'qidan har ikki tarafga – 350 metr;
- 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga – 300 metr;
- 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga – 250 metr;
- 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga – 200 metr;
- 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga – 150 metr;
- 300 mm. va undan kichik bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga – 100 metr va gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlangan) 100 metr.

Shu bilan birgalikda aholi e'tiborini quyidagilarga qaratmoqchimiz. Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatis avvaldan qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalari muvofiq sifatida rasmiylashtirib berilmoqda. Lekin magistrat gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan no-qonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzilishi kerak bo'ladi.

Agarda hamyurtlarimizning yer uchastkasi yoki dehqonchilik qilayotgan maydoni magistrat gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin shu gaz quvuriga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Shunday holda fuqarolar o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabuzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'lishadi.

Magistral gaz quvurlari qoidalarini buzilishiga sabab bo'lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning "Magistral quvurlari himoyasi qoidalarini buzish haqida"gi 150-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Tashkilot manzili:
Samarqand tumani Gulobod maskani,
Gazchilar qo'rg'oni.
Telefonlar: +99866-612-56-01,
612-53-04, +99899-022-77-12.

Isfandiyo ERGASHEV,
Samarqand magistrat gaz quvurlari boshqarmasi boshlig'i v.v.b.
Iskandar SHUKUROV,
Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Babakulov Saitkulla (2019-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuni-so ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Muxiddinova Masudaga (2010-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Kayumov Mustafoga (2018-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Gulomov Jahon Rajabovichga (2020-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Djavadov Aminjon Xasanovichga (2021-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Pogorelova Venera lyagizovnaga (2023-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Miliyev Kurakboyga (2021-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Abdusattarov Ibroxim Raxmonovichga (2022-yil 13-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Turabova Maxfiratga (2020-yil 19-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

"SIYOB DEHQON BOZORI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari diqqatiga!
"Siyob dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sis-chilarining navbatdan tashqari yig'ilishi 2023-yil 9-oktabr kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriyati binosida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. "Samarqand Shodiyonasi" sho'ba korxonasi "Siyob dehqon bozori" MCHJ tasarrufidan chiqarish.

2. Boshqa masalalar.

Manzil: Samarqand shahri Bibixonim (8-mart) ko'chasi, 8-uy.
Mo'ljal: "Siyob dehqon bozori" MCHJ ma'muriyati.
Murojaat uchun telefon: +99866-235-03-83.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Abdullayev Xasan Najmiyevichga (2009-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Sadikdjanov Obidjon Temirbayevichga (2023-yil 13-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Eshnazarova Shirin Usmanovnaga (2023-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich

notarial idorasida marhum Axmedova Tufaga (2021-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Rozikova Chinniga (2012-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Ishonkulov Nasimga (2002-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Narzikulov Aslamkul Murtazaevichga (2015-yil 27-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova

HURMATLI TOHIR QODIROV!
Sizni tug'ilgan kuningiz, qutlug' 70 yoshingiz bilan muborakbod etamiz!

Hayot sarhaclarida yetmish yil umrguzaronlik qilib, zimmangizga yuklangan vazifalarni a'lo darajada bajarib yulapsiz. Xizmatlaringiz evaziga el-yurt hurmati va e'tiborini qozondingiz. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i sifatidagi faoliyatiz bar-chamiz uchun qadrldir. Siz tajribali huquqshunos, mehribon ustoz, kamtarin insonsiz.

Hurmatli Tohir Qodirov, sizga uzoq umr, mustahkam sog'lik, oilaviy baxt va inson huquqlarini himoya qilishdek sharafli va ma'suliyatli kasbingizda omad yor bulishini tilaymiz.

SAMARQAND SHAHAR "QOMUS" ADVOKATLAR HAY'ATI JAMOASI.

Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Xasanov Djasim Djalali o'g'liga (2002-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Obiddinov Askar Guliyamovichga (2011-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Mamasolievichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99850-101-99-22.

Navoiy viloyat ichki ishlar boshqarmasidan Ochilov Nemat Mamasolievichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99850-078-08-45.

BEKOR QILINADI
Fuqaro Axmedova Fotima Kodirxonovnaga qarashli Samarqand shahri Ozod Sharq ko'chasi, 1-yo'lak, 21-uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



SAMARQAND SHAHAR "QOMUS" ADVOKATLAR HAY'ATI JAMOASI.

Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Xasanov Djasim Djalali o'g'liga (2002-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Obiddinov Askar Guliyamovichga (2011-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Mamasolievichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99850-078-08-45.

BEKOR QILINADI
Fuqaro Axmedova Fotima Kodirxonovnaga qarashli Samarqand shahri Ozod Sharq ko'chasi, 1-yo'lak, 21-uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

YAXSHIYAM SO'Z BORDIR DUNYODA

ABDULLA SHERNING "YONAYOTGAN YO'L" KITOBINI O'QIB

Shoir menga (men uni dast-avval faylasuf sifatida emas, shoir sifatida taniganman) insoniy tushunchalardan tashqari tuyg'ularimni ham idrok etishimga ko'maklashardi. Esimda, talabalik paytlarim uning she'rlarini daftarlarimga ko'chirib o'tirardim. Kimgadir aytmagan so'zlarimni shu she'rlar orqali izhorga yo'llashga chog'langanlarim qancha...

Dilimdagi mujassami bo'lgan Abdulla Sher she'riyat qarshisida o'zimni goh o'z, goh yettinchi osmonlarda ko'rganlarim qancha...

"Yonayotgan yo'l" necha oydan beri stolim ustida. Necha oydan beri, necha marta qo'limga oldim.

Men ishonchim, qattiq ishonchim, So'ng qoqilib, burnim qonadi. Qizil qonga belangan jonim, Gulkan bo'lib endi yonadi.

Vaqt charxpalagi boshimni guvillab aylantiradi. Dosh berolmay, ko'zlarimni yumaman. Soniyalar qarigan umrimni keltirib ko'zimga tiqadi...

Shoir yoki yozuvchi haqida odatda u hayotdan ko'z yumganidan keyin ko'proq yozishga kirishiladi. Go'yo tirikligida bu ish noo'rindak. Ehtimol, bunga qodir emasdirman, ammo Abdulla Sher she'riyatini XXI asrning chinakam faylasufona drammatizmi degim keladi. Holbuki, shoirning birorta asari teatr sahnasiga chiqmagan. Yoki men bexabarman.

XX asrning dahshatli jallodlaridan biri - Iosif Stalinga she'ri. Satrlar boshidanoq tomoshabinni qurshovga oladi. She'r so'ngiga yetguncha chinakam urushning olovli yo'llaridan yurib o'tasan. Qalbingda o'z-o'zidan so'z aytish qudratiga ega ekaning bo'y rostlansa, naqadar ulug' millatga mansublik iftixori bosh-oyoq vujudingdan tashqariga qalqib chiqadi. Va, sen o'z qo'llaring bilan o'sha masha'mlik egasining bo'g'ziga o'tkir tirnoqlarini botirasan. Kremli devorlariga kaftingdagi bir siqim kulni yuraging to'la faryod, nafat qorishilgan g'urur ichida sohib yuborasan. Quloqlaring tagida jangchining xitoblari jaranglaydi:

...Sen-chi, kimsan? O'lis bir ko'lka, Botqoqlarda yo'qolgan yo'lsan! Mosuvosdan - yetti yot o'lka Devorida bir siqim kulsan!

Ha, "Yonayotgan yo'l"ning bir ko'chasi-dagi ko'rgulik bu!


Shoirning she'riyat men uchun goh jang maydoniga aylansa, goh oy nurida egatlarga taralayotgan suvning shildirog'i ostida dalalarga boshlaydi. Goh sovuqdan muzlab qolgan qo'llarimni damimiz hovurida isitishga urinib, puf-pufatgan qor tegib muzlagan tolalarga mukka tushib egiliradi...

Tani qizg'ish, barglari tajang Shildiragan g'o'zapoyalar Taratadi kulrang bir ohang Qorga tashlab uzun soyalar.

Quyosh boshiga qip-qizil ro'molini o'ragan mahalda terimdan qaytatyotib sindfoshlar kimsasiz qolgan chayla atrofiga polizning u bu yerida unutilib, dumanlab yotgan qovunlarni etaklarimizga soldiradi. Uzun-uzun poyalar oyoqlarimizga o'rilib, yiqilamiz, guv-guv kulamiz...

... Sentabr quyoshi silaydi iliq, Yuzimiz, yelkamiz, qo'llarimizni, Duno muncha go'zal, muncha xush qiliq, Tangri uzun qilsin yo'llarimizni!...

"Yonayotgan yo'l"ning yo'llaridan chiqolmay, sevgidan charchagan yurak bir muddat tinchib, dunyo jimlik ichida qolganini his qila-qila, takror yana takror ayriliqning asriy hasratiga cho'kayotgan jisming azob girdobida



naqadar totli tirilishni udda qilayotganini tomosha qilasan...

"Ayb o'tadi, axir hammadan..." Nedir dedim men ham notayin. Oniy ilini, yengil chamadon, "Qol!" demadim senga atayin.

"Yonayotgan yo'l"ga qo'l cho'zaman yana. Bu safar ham u meni shovqinga to'la, devorlari oppoq, atrofini gujumlur o'ragan maktabim bag'riga yetaklaydi. Partalar oralab, kimningdir qo'llari gul uzatadi...

Biz ikki sinfdosh yaxshi ko'radik Hovlini bezagan qiyg'os olchani. Birga dars qilardik, uchar glim deb Olcha ostidagi eski sholchani. Uniqqan sholchaga bag'rimiz berib, Badavlat edik biz - bahordek xushro'y. Qismat olib ketdi bir epkin bo'lib, Bizga yetolmasdan qolib ketdi to'y...

Qulog'ingga qishloq bo'ylab sokin oqshom cho'kayotgan pallada hofizning nolasi keladi. Oppoq libosli kelinchak, yonida partalar oralab yurib kelib, gul uzatayotgan qo'l ko'rinadi...

Bolalik atalgan aziz diyorning Bag'rida hanuz bor o'lis ul qishloq; Men hanuz etagin tutib bahorning Sog'inib yashayman seni, qizg'aldoq... Sog'inib o'qiyotganlaring ichingdagi sog'inchlarga qo'shilib, iztiroblar lov-lov yonayotgan yo'llardan seni qayta-qayta omon olib o'taveradi.

Go'yo miyang ishlashdan to'xtagan, o'zingni bu qadar notavonlik ichida sezib, o'pkang xo'rlikka to'ladi. Birdan o'zing, faqat o'zing haqingda o'ylay boshlaysan. Dunyoga kelganing, kim bo'lib kelganing, senga so'z aytishdek ne'mat ato etilganini, zuvalangni qorayotgan Egam loyningga shu qudratdan bir chimdimg qo'shib yuborgan ingsingga tushib ketadi.

Salom, She'rim! Nihoyat, mana, Chiqib kelding da'atan bog'dan Va zabt etib ruhini yana Yonib boqding so'nggi yaproqdan. Qish ham o'tdi, yoz o'tib ketdi, Bir sengina qolding, She'rginam. Qayg'urma deb "kerakman kimga?" Umid bilan bo'yginangni cho'z: Jaranglasin yetti iqlimga Ikkimizga umr bo'lgan So'z. Yaxshiyam shu so'z bor ekan... Yaxshiyam...

Oradan ancha fursat o'tdi. "Yonayotgan yo'l"ning fikrlarim dabdurustdan to'xtab qoldi. Yuragim og'rib yurdi, oylab og'ridi. Abdulla Sherni ko'rmaganim biroq ko'nglimni aldab tursa ham miyig'ida kulimsirab turgan sinovchan nigohlari "Sendan so'radimmi, eplasang yoz, eplamasang to'xtat", degan ishorani qilayotganday. Ulardan o'zimni olib qochmoqchi bo'laman. Keyin birdan undan emas, o'zimdand qochayotganimni sezaman. Kitobga qo'l cho'zaman, barmoqlarimning o'zi ochadi varaqlarni...

Turib bo'lmas: sirpanchiq, toyg'oq, O'tkinchi baxt, shuhratu shonlar. Biroq doim yashaydi uyg'oq Qonimdag'i buyuk Kushonlar.

Ichimda nimadir uyg'ona boshlaydi, nimadir o'sha meni g'aflatdan turtkilyadi.

...Men kiraman ming yillar avval Tug'ilgan Baxt qiyofasiga, Nursiz kunlar berolmas halal Qalbindagi ziyo fasliga. O'zingni qo'lga olishga, istasang, o'zingga qaytishingga shu satrlarning o'zi kifoyadek.

"Ayolga shafqat"ga duch kelgan qo'llarimga titroq kiradi. Satrlar so'nggi bor oyoqqa turishga kuch topgan-u,

mushtipar jussasi tomon uzalmagan najotkor qo'l izlanayotgan pariga aylanib bo'lgan bo'ladi... Yiqilgisi keladi. ...Yiqilsam, tutarmikan" degan oniy fikr yalt etib o'tadi shuuridan. Yashashga tashna lablar orasidan yutoqqan alam allaqachon "dod"ga aylansa-da, chiqmayotgan ovozi hech kim anglamaydi...

Madhuni qilolmay shoshadi she'rim, Ayolning g'ayrati, shijoatidan. Va lekin daryodek toshadi she'rim, Zamanning ayolga xiyonatidan...

O-o-o - hayotning zamanga tutash yuragi, oxiri yiqitding, oxiri tinding...

"Dunyo degan bu daryobodda" "Yonayotgan yo'l" orasi bir qadam ersa-da, men "netayin" sira yo'lning so'ngiga yetolmay tentirayman. Shu qadarga qadar yozganlarim naqadar g'ariblik kasb etib ketadi. Ustiga ustak dunyodonga haq istab "cho'zilgan qo'llarimning sog'inchli qayg'usi" zaifgina kaftlarim orasida sag'ir qolgan bo'm-bo'sh jomning qayta to'lmasligi qalbimni iztirobga cho'ktiradi.

Tugaydi mening ham yerdagi yo'l, Qachondir ko'zimni yopib qo'yarlar. Unutib men aytgan qo'shiqlarni, jim, Qabr uchun hosildor yerni o'yarlar. ... Bo'lgan- bo'lmaganim aylanar sirga.

Shu yerda yozishdan taqqa to'xtayman. Shoir qalbining yuki zo'ridan yuragim bir nafas tin olmasa, yorilib ketish ehtimoli bordek. Charetsdan tarjimalar shu qadarki, ikki buyuk daho ruhi bir-biriga singib ketgani rost:

Shoirlik ne? Yo hoyu havas, Yo darbadar kechgan hayotmi? Agar unga tikilsang birpas, Ilg'agaysan ulkan hayotni.

Kuraklarimdan o'sib chiqqan qanotlar tuproq bo'yi ko'milgan jonimni osmonu falaklarga olib chiqadi. Seni anglash, seni tushunish, senga yetishga ulgurmagani haqiqatlar ko'zlaringga yosh bo'lib silqib chiqadi. Sen odamga o'xshamaysan, odam bo'lg'ing keladi. Qo'lingdan kel-magan odamlik oyog'ingga tushov bo'lib botaveradi;

Shoir fildan, devdan kattadir, Shu sababmi, sig'mas zaminga. Tizzagacha yerga botadir, Boshi tegib baland osmonga. Oromi yo'q uning Vatanda, Hijratda ham topmas halovlat. Bir so'z bilan ta'rifiyangana: Harorat, Harorat, Harorat!

Muhabbat SAFOYEVA, Xorazm viloyati.

Mulohaza uchun mavzu



YIG'ILISH MADANIYATI

BIZDA QAY DARAJADA SHAKLLANGAN?

Keyingi paytda aholi o'rtasida keng muhokamalarga sabab bo'layotgan holatlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan videolavha va audioyozuvlar ana shu savolni yuzaga chiqarmoqda.

Odatda muhim masalalar, ma'raka va marosimlar shu ishga daxldor kishilar ishtirokida avval muhokama qilib olinadi, uning sabab va oqibatlarini tahlil qilinadi. Bu mashorat, maslahat ham deb nomlanadi. Hozirgi davr tilida aytganda, yig'ilish, majlis.

Bunday yig'inlarda el o'rtasida obro'li, so'zi salmoqli kishilar, biror ishga mas'ullar jam bo'ladi va ularning har biridan fikr so'raladi. Aytilgan fikrlar, takliflar, xulosalar - hammasi taroziga qo'yilib, eng maqbullari tanlanadi, shunga qarab, vazifalar, yumushlar taqsimlanadi. Maqsad - kutilayotgan tadbirni ko'ngildagidek o'tkazish, belgilanayotgan yumushni bekamu ko'st ado etish.

Demoqchimizki, muhim masalalarni ko'pchilik ishtirokida muhokama qilib olish kecha yoki bugun paydo bo'lgan tadbir emas. Siyosat yoki tuzum tufayli yuzaga kelgan, deyish ham noto'g'ri bo'ladi. Azzaldan ota-bobolarimiz shunday yo'l tutgan, har bir ishni maslahat bilan boshlagan. Sohibqiron Amir Temur ham o'z tuzuklarida saltanatni kengash bilan boshqarganini qay etgan.

Afsuski, bugun turli idoralar, boshqaruv organlari yig'ilish, majlislarini kengash, maslahat va mashvaratga qiyoslab bo'lmaydi. Bu yig'inlar go'yo ayrim rahbarlarning qo'l ostidagilarni ko'pchilik oldida izza qiladigan, obro'sizlantiradigan, hatto haqoratlashgacha boradigan majlisga aylanib qolgan. Shuning uchun ham yig'ilishga deb chaqirishsa, yurak hovuchlab keladiganlar bor. Bunday tadbirlardan yurak og'rig'ini orttirib olganlar qancha?!

Davlat rahbarining qayta-qayta ogohlantirishlari tufayli dam olish kunlari yoki ish vaqtidan tashqari paytda majlis o'tkazish holatlariga chek qo'yildi (shunda ham quyilgan qadimgi rahbarlar bu tarzda yig'ilish o'tkazishga urinayotganini eshitaypmiz).

Garchi bugun ancha kamaygan bo'lsa-da, ishtirokchilarni yig'ilishga belgilangan vaqtdan ancha oldin chaqi-

rish holatlari uchraydi. Ko'pincha bundan rahbarning xabari ham bo'lmaydi, majlisga mas'ullar "yavka"ni ta'minlash uchun shunday yo'l tutadi. Keyin qo'l telefonni tashqarida qoldirib kirish talabi qo'yiladi. Bunga ham turli vajlar ko'rsatiladi. Ammo yig'ilishdagi gap-so'zlarni yozib olaman, buni ijtimoiy tarmoqda tarqataman, degan odam boshqa vositalar va yo'llar bilan ham bu ishni qilishi mumkin-ku?! Yoki majlisda qatnashgan odam u yerdagi gaplarni jamoasida, boshqa davrada aytmaydimi? Rahbarning kimga qanday munosabatda bo'lgani, kimni haqorat qilgani haqidagi gap yig'ilishdan so'ng darrov tarqalaydi.

Yig'ilishlarni bu tarzda yopiq, muomala-munosabat chegarasidan chiqqan holda o'tkazishdan ko'ra, har kimning faoliyatiga zimmasidagi vazifa va majburiyatini qay darajada bajarayotganiga qarab baho berish, qonuniy chora ko'rish ma'qul emasmi? Shunday yo'l tutilganda ish tartibli ketayotgani, ortiqcha gap-so'zlar chiqmayotganini ham ko'ryapmiz-ku.

Ayrim rahbarlarga bu haqda aytasangiz, yig'ilish qilib, odamlarga qattiq gapirma-sangiz, ish ketmaydi, deb bahona qilib-shadi. Yoki shu yo'l bilan qo'l ostidagilarni tartibga chaqirmoqchi, ish bir maromda ketishini ta'minlamoqchi bo'lishadi. Aslida esa berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishi vazifalarning to'g'ri va adolatli qo'yilishi, jamoada tartib-intizom ta'minlanganiga bog'liq.

Nega ko'pchilik xususiy sektor yoki xorijiy kompaniyalarda ishlashni ma'qul ko'rmoqda? Sabab - bu jamoalarda har kimning o'z vazifasi, majburiyati bor. Undan o'z majburiyatidan boshqa narsa talab qilinmaydi. Har kim o'z ishini qiladi va ishdan tashqari vaqtini o'zi belgilaydi, oilasi davrasida o'tkazadi, dam oladi.

Bugun davlat idoralari, korxon va tashkilotlarda ham inson resurslaridan samarali foydalanish, ish beruvchi va xodim munosabatlarida qonun ustuvorligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ko'plab hujjatlar qabul qilin-d, tartiblar ishlab chiqildi. Gap ana shu hujjatlarning ijrosi ta'minlanishida qolmoqda.

G.HASANOV.

Yoshlar hayoti

DADAMNING ARMONI - MENING ORZUIM



Kattaqo'rg'on tumanida oddiy oilada tug'ilganman. Dadam - fermer xo'jaligi ishchisi. Onam - uy bekasi. Halol mehnati bilan to'rt farzandni voyaga yetkazdi. Aslida dadam shifokor bo'lishni orzu qilgan. Bir necha bor shu yo'nalishda oliy ta'lim muassasasiga imtihon topshirgan, ammo o'tolmagan.

Keyinchalik farzandlaridan biri, albatta, shifokor bo'lishini chin dildan istagan. Oilada kenjaman. Aklarim ham dadamning bu orzusini amalga oshirilmagan. Bor umidi mendan edi.

Hali esimni tanib ulgurmasimdanoq bolalar bilan o'ynaganimda, shifokor rolini ijro etgan ekanman. Shuning uchun maktabda yuqori sinfga o'tganimdanoq dadam menga botanika, biologiya va kimyo fanlarini chuqur o'rganishimni tayinlagan. Bu fanlarga o'zinning ham qiziqishim yuqori edi.

Maktabimizda biologiya va kimyo o'qituvchisi Dilfuza Nizomova darsni juda qiziqarli o'tardi. Har bir fanni alohida ko'cha sifatida tasavvur qilishimni aytardi. Masalan, "Botanika ko'chasi", "Zoologiya

ko'chasi". Xayolan shu "ko'cha"lar bo'ylab sayohat qilardik. Mening bu fanlarga qiziqishimni ko'rib, qo'shimcha darslarga, ya'ni to'garaklarga ham qatnashishimni aytdi. To'lov qilishga imkoniyatim yo'qligini aytmay turganimda, bepul o'qitishini ta'kid-ladi. Keyin bilsam, sharoiti og'irroq oila farzandlari uchun ustozning to'garaklari bepul ekan. Shu imkoniyatdan foydalanib, qunt bilan o'qidim va natijaga erishdim. Shifokorlikka birinchi qadamni tashladim, ya'ni shu yil maktabni bitiribqoq Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi bo'ldim.

Universitet va uning klinikalarida o'qish hamda amaliyot o'tash uchun barcha imkoniyatlar bor. Bundan oqilona foydalangan holda el dardiga malham bo'ladigan, ota-onam va ustozlarimning ishonchini oqlaydigan shifokor bo'laman. Asosiysi, dadamning ushalmagan orzusini ro'yobga chiqaraman.

Doston ASRAYEV.

MATBUOT UYI Zarafshon AMARKANDSKII VESTNIK

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi Bosh muharrir: Farmon TOSHEV Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 372 nusxada chop etildi. Buyurtma 542. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2 Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56 BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61 MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonada manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Boshiga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Boshiga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV. Navbatchi: O'.XUDOYBERDIYEV. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X 9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda